

Ingliz tilida salomlashish uchun ko'pincha ikkita so'zdan foydalaniladi: Hello! (rasmiy salom) va Hi! (norasmiy salom).

▶ Hello! Hi!

So'nggi paytda Hi! o'zining norasmiy tusini yo'qotib, neytral so'zga aylandi. Endilikda siz, notanish hamda sizga xizmat ko'rsatayotgan shaxslarga, shuningdek jamoat joylarida Hi! deb aytishingiz mumkin. Hi! kunning aynan biror qismiga tegishli emas. U istalgan vaziyatda qo'llaniladi.

Kunning qaysi payti ekanligini hisobga olgan holda turli salomlashishlardan foydalanish mumkin. Masalan:

▶ Good morning! yoki Morning!

Ushbu salomlashish suhbatdoshingiz bilan ertalabki payt uchrashayotganingizda o'rinlidir.

▶ Good afternoon!

Good afternoon! Xayrli kun! Ushbu salomlashish esa kunduzgi vaqt uchun mos keladi.

▶ Good evening!

Good evening! Xayrli oqshom! Kechki paytda suhbatdoshingizni shu tarzda qarshilashingiz mumkin.

Shuningdek, e'tiboringizni quyidagi iboraga qaratmoqchiman:

▶ Good night! Xayrli tun! Bu ibora salomlashish emas. Good night! iborasini faqat suhbatdoshingiz bilan xayrlashayotganingizda xayrli tun tilash maqsadida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Ushbu salomlashishlarni yodda tuting:

▶ Hi!

▶ Hello!

▶ Good morning! Morning!

▶ Good afternoon!

▶ Good evening!

Salomlashishdan soʻng, odatda quyidagi savol beriladi: How are you? Ahvolingiz qalay?

▶ How are you?

Ogʻzaki nuqtda koʻpincha iboraning quyidagi qisqa shakli qoʻllaniladi: How're you? Taqqoslang: How are you? - How're you?

Odatda ushbu savolga “Good, thanks”, yaʼni “Yaxshi, rahmat” iborasi javob boʻladi.

▶ Good, thanks!

Bundan tashqari, quyidagi iboralarni ham javoban aytish mumkin:

▶ Very well, thank you.

▶ I'm OK, thanks.

Norasmiy suhbatda “Ahvolingiz qalay?” savolini quyidagi tarzda berishingiz mumkin: How you doing?

▶ How you doing?

Grammatik jihatdan toʻliq toʻgʻri shakl quyidagicha boʻladi: How are you doing? Biroq, ogʻzaki nutq grammatik qoidalarining rad etilishiga yoʻl qoʻyishi bois turli soʻzlar, jumladan artikllar, predloglar yoki yordamchi feʼllar tushib qoldiriladi. Yuqoridagi savolga ham Good, thanks! yoki Very well, thank you! iboralari javob boʻla oladi.

▶ — Hi! How're you?

▶ — Good, thanks.

▶ — Hi! How you doing?

▶ — Very well, thank you!

Siz suhbatdoshingizning yaqin qarindoshlari haqida soʻrashingiz mumkin. Misol uchun, ota-onasi toʻgʻrisida. How's your mother? —

Onangizning ahvoli qalay? Javob: She's good, thanks! — Ular yaxshi, rahmat.

- ▶ — How's your father?
- He's good, thanks.
- How's your wife?
- She's good, thanks. How's your husband?
- Good, thanks.

Umuman olganda, ingliz tilida kim haqida savol so'ralsa, xuddi shunday olmosh bilan javob berilishi lozimdir. Masalan, How are your parents? — Ota-onangiz ahvoli qalay? Parents — ota-ona so'ziga they olmoshi mos keladi. Shunday ekan, javob quyidagicha bo'ladi: They're good, thanks. — Ular yaxshilar, rahmat. Agar How are you? savoli bilan siz bir kishi emas, balki ikki va undan ortiq kishilarga murojaat qilayotgan bo'lsangiz, javobda we - biz olmoshi ishtirok etadi:

We're good, thanks. — Biz yaxshimiz, rahmat.

Chalkashlikning oldini olish uchun quyidagicha javob berish mumkin: Good, thanks. Ushbu qisqa javob barcha shaxslarga birdek mos keladi.

Salomlashishning umumiy qabul qilingan zamonaviy shakli quyidagi iboradir: What's up? — Ishlar qalay?

- ▶ What's up?

Bunday salomlashishni norasmiy vaziyatlarda do'stlar bilan muloqot payti qo'llash to'g'ri bo'ladi. Savolga quyidagi ibora bilan javob berish mumkin: Not so much. — Aytarli hech narsa.

Shuningdek, eslatib o'tish lozim bo'lgan boshqa norasmiy salomlashish:

- ▶ What's new?

Nima yangiliklar? Bu savolga ham Not so much iborasi orqali javob berish mumkin.

Xizmat ko'rsatish sohasida muloyimlik bilan murojaat qilinadi. Erkaklarni sir — ser, ayollarni esa ma'am — mem deb chaqirish odat tusiga kirgan. Ma'm so'zi — madam so'zining qisqartirilgan shakli bo'lib, to'liq shaklda deyarli qo'llanilmaydi.

▶ Hello, sir!

▶ Hello, ma'am!

Norasmiy murojaatlarga guys va buddy so'zlarini kiritish mumkin. Guy — guys so'zining birlikdagi shakli bo'lib, "yigit" deb, guys so'zining o'zi esa "yigitlar" deya tarjima qilinadi. Ammo ushbu so'zni faqatgina yigitlarga murojaat qilayotganda emas, balki qizlarga ham yuzlanayotganda qo'llash mumkindir.

▶ Hi, guys! What's new?

Ya'ni "Salom yigitlar! Nima yangiliklar?" Buddy so'zi "do'st, qadrdon, oshna" degan ma'noni anglatadi. Hello, buddy! — Salom, oshna! Ta'kidlab o'tish joizki, odatda buddy so'zi ko'plik shaklda qo'llanilmaydi. Ko'plik shaklda faqat yuqoridagi Hi, guys! iborasini qo'llash o'rinlidir.

Demak, guys va buddy so'zlari - norasmiy so'zlardir. Bu so'zlarni siz faqat yaqin do'stlaringizga nisabatan qo'llashingiz mumkin.

Epizod soʻzlari va iboralari

Hi! — Salom (neytral)!

Hello! — Salom (odatda rasmiy)!

Hi! How are you? — Salom! Ahvolingiz qalay?

Hello! How you doing? — Salom! Ahvolingiz qalay? (norasmiy)

Good, thanks! — Yaxshi, rahmat!

Very well, thank you. — Juda yaxshi, rahmat.

Hello, sir! — Salom, ser!

Hello, ma'm! — Salom, mem!

Hi, guys! — Salom, yigitlar!

Hello, buddy! — Salom, oshna!

What's up? — Ishlar qalay?

What's new? — Nima yangiliklar?